

THE ROLE OF THE SPIRITUAL EDUCATIONAL LEGACY LEFT BY OUR GREAT ANCESTORS IN THE EDUCATION OF YOUTH.

Ergasheva Gulchehra Elmurod Qizi

Jizzakh State Pedagogical Institute, Faculty of Pedagogical Psychology

Abstract: Independence gives the Uzbek people the dignity of their homeland, the restoration of their culture and traditions, religion, faith, language and culture, national pride and national thinking, feelings of patriotism. laid the groundwork for perfection. For almost a century, our country has been deprived of its freedom and faith in the Soviet system. It is no exaggeration to say that this period was one of the saddest for the Uzbek people. But even in those tragic days, the Uzbek people showed their true strength.

Keywords: Religion, faith, language, culture, national pride and national thinking, feelings of patriotism

BUYUK AJDODLARIMIZ QOLDIRGAN MA'NAVIY MA'RIFIY MERO SLARINING YOSHLAR TARBIYASIDAGI O'RNI.

Ergasheva Gulchehra Elmurod Qizi

Jizzax Davlat Pedagogika institute Pedagogika psixologiya fakulteti

Mustaqillik O'zbek xalqiga o'z yurtida qadr-qimmatini bo'y bastini o'z madaniyati va ananalarini, din-u e'tiqodini, til va madaniyatini qayta tiklab olishga milliy g'urur va milliy tafakkur vatanga muxlabbat tuyg'ularini kamol toptirishga zamin yaratdi. Zero vatanimiz salkam bir asr davomida sho' rolar tuzimida o'z erkidan ,e'tiqodidan mahrum bo'lib yashadi. Bu davr O'zbek xalqi uchun eng achinarli davrlardan biri bo'ldi desak mubolag'a bo'lmaydi. Lekin o'sha ayanchli kunlarda ham O'zbek xalqi o'zining haqiqiy kuch-matonatini namoyn etdi. Ajodlarimizning qoldirgan boy m'anaviy meroslari bugungi yosh avlodning tarbiyasida muxim o'rinn tutadi. Xususan buyuk sarkarda sohibqiron Amir Temur shaxsiy na'muna sifatida tutgan o'rni beqiyosdir. A. Temurning xayotiylik hog'ida uning davlat boshqaruvi va harbiy yurishlariga bag'ishlangan "Temur tuzuklari" hozirgi yosh avlodning ma'naviy yxuksalishida muxim qo'lyozma hisoblanadi. U kitob haqida to'xtalar ekanmiz Nur g'arbdan emas sharqdan chiqqan degan rad qilib bo'lmas isbot dalillarga egamiz. O'rta asrlarda sohibqiron hazratlarining Tuzuklari tom ma'nodagi ilk o'rta asrlar davri konstitutsiyasi ekanini har jixatdan ko'rishimiz mumkin. Bu tuzuklarni o'rgangan yosh avlodning hotirasida ota-bobolariga nisbatan iliq tassurotlar qoldiradi. Prezidenti I.A.Karimov takidlaganlaridek "Kimki o'zbek nomini, o'zbek millatningi kuch-qudratini, adolatparvarligini, cheksiz imkoniyatlarini uning umumbashariyat rivojiga qo'shgan hissasini, shu asosida kelajakka ishonchini anglamoqchi bo'lsa A.Temur siyosini eslashi kerak" degan oltinda teng so'zlari bugungi kunda yarqirab turgan yulduz misoli nur taratmoqda. O'lkamizga uyshtirilgan turli davrlardagi ko'plab bosqinchiliklar natijasida ajdodlarimizdan bizga meros bo'lib qolgan beqiyos durdonalar yoshlар tarbiyasida

o'z salmog'i bilan ajralib turadigan noyob kitoblar yo'q bo'lib ketdi. Bu esa o'zbek xalqi balki barcha xalqlarga jiddiy yo'qotish bo'ldi. O'rta asrlarda yashab ijod qilgan muhaddis olim buyuk bobokolonimiz Muhammad az-Zamahshariy o'zining jismonan zaifligiga qaramasdan dunyoning ko'pgina joylariga safarlar qilgan. Teran bilimi va aqliy salohiyati tufayli olamni lol qoldirgan bu zot xalqimizning o'chmas timsoli bo'lib qolaveradi. Shunday buyuk ajdodlarimiz, shu diyorda tug'ilib shu yurtning buguni va ertangi kuniga o'zlarini dahldor deb hisoblab, yurtining gullab yashnashi uchun bor kuch va shijoatlarini bag'ishlaganlar. Bunday ajdodlarimiz borligidan ,ularning e'rishgan yutuqlaridan qancha fahrlansak shuncha oz. Ularning o'ta qiyin sharoitlarda ham huzur halovotlaridan kechib jamiyat taraqqiyoti va rivoji yo'lidagi say harakatlari ma'naviy jasorat bo'lib,ular oldida faxr iftixor tuyg'ular bilan yana bir bora ta'zim qilamiz. Dunyo tamadduniga yetarlicha hissa qo'shgan buyuk bobokolonlarimiz borligidan fahrlanibgina qolmay, ularga munosib avlod bo'lmos'himiz bugungi kunning dolzarb muammolaridan bir desak adashmaymiz. Buyuk tarix ma'naviyat va ma'rifat egasi bo'lgan bunday xalqning farzandi bugungi dunyoda kechayotgan global jarayonlarning ma'no mazmunini teran anglaydigan, uning mafkuraviy manzarasini aniq tasavvur eta oladigan ulkan tafakkur sohiblari ajdodlarimizda munosib vorislar desak ayni haqiqatni aytgan bo'lamic. Yana shunday buyuk bobokolonlarimizdan biri Abu Abdulloh Rudakiy aytganlaridek: Ilmdan ortiq xazina yo'qdir, faqatgina qo'lingdan kelguncha tera olsang bas degan so'zları har qanday insonni ayniqsa yosh avlodni ilm olishga undaydi desak mubolag'a bo'lmaydi. Mustaqillik yillar yurtimizda olib borilgan say-harakatlar natijasida yoshlar ta'lim va tarbiyasi davlat siyosati darajasiga ko'tarildi. Yoshlarga ta'lim tarbiya berish jarayonlaridan eng samaratili hisoblangan maktablarning o'rni beqiyosdir. Ilk maktab ostonasiga qadam qo'ygan har bir o'g'il qiz ilm olish bilan bir qatorda ta'lim va tarbiya saboqlarini oladilar. Shu o'rinda buyuk allomamiz Abdulla Avloniy aytganlaridek: "Tarbiya biz uchun yo hayot yo mamot,yo najot yo falokat,yo saodat yo halokat masalasidir"degan ibratli so'z zamirida olam-olam ma'no va mazmun joy olgan. A.Avloniy Sho'rolar tuzimi davrida qiyinchiliklarga qaramasdan yoshlar tarbiyasiga va kelajagiga jiddiy qaragan. Bobomiz o'z hisobidan maktablar ochib o'quvchilarga ilk saboqlarni ularshagan. Uning yuqori sinf vakillari uchun hayotiy va e'tiborga molik bo'lgan Ahloq darslarining o'rni beqiyosdir. Uning "Turkiy guliston yohud ahloq asarinig bezagi hisoblangan "Ahloq" "Hulq" "Tarbiya" "Diyonat" "Shijoat" kabi insoniy tuyg'ular va tushunchalar moxirlik bilan yoritilgan. Insonning hayotda o'zyolini topishi, o'z o'rniga ega bo'lishi, komil inson, yetuk shaxs bo'lib rivojlanishida ota-onalarining ham o'rni beqiyosdir. Yoshlar tarbiyasi Davlat siyosati darajasiga chiqar ekan bunda ota-onalarining ma'suliyatli kasbiga alohida to'xtalamiz.yosh avlod tarbiyasida otra ona o'z farzandlariga shaxsiy na'muna bo'lishlari shart va o'zida jamiyki bor yaxshi amallarni farzandlari ongiga singdirib borishlari joiz. Yana o'sha allomamiz A.Avloniy so'zlariga kelar ekanmiz: "Tarbiya qilguvchilar tabib kabidurki, tabib hastening badanidagi kasaliga davo qilgani kabi tarbiyani bolaning vujudidagi jahl maraziga yaxshi xulq degan davoni ichidan, poklik degan davoni ustidan berib katta qilmog'lozimdur". Bu gaplar zamirida yuksak tajriba samarasini o'laroq, tarbiyani avvalo tarbiyachi o'zida boshlamog'i zarurligi nazarda tutiladi. Ibn Sino takidlaganlaridek: "Bolaning tarbiyasi bu-izchil va asta sekin amalga oshiriladigan tartibdan iborat" deb tarbiyaning qanchalar muhimligini aytib o'tganlar. Yana bu jumla mohiyatiga nazar soladigan bo'lsak, ota-ona tomonidan bolaning tarbiyasi hamisha izchil bo'lishi hamda asta sekinlik bilan olib borilishi maqsadga muvofiqdir. Birinchi Prezidentimiz I. A. Karimovning Yuksak Ma'naviyat Yengilmas Kuch asarida shunday

satrлarnи байон qilган: “Ta’limni tarbiyадан tarbiyani ta’limdan ajratib bo’lmaydi, bu sharqona qarash, sharqona hayot falsafasi”. Ta’lim va tarbiyani birdek olib borish xalqimiz mintalitetining ajralmas bo’lagi ekanligi yana bir bor o’z isbotini topadi.